Biroq ko’chirish siyosati tanqidchilardan holi emas edi. Ba’zilar bu mahalliy aholining ko’chirilishiga va mahalliy madaniyatning yo’q bo’lib ketishiga olib keladi, deb ta’kidladilar. Boshqalar mintaqadagi og’ir sharoitlar, jumladan, qurg’oqchil iqlim va suv yetishmasligi ko’chib kelganlarning gullab yashnashini qityinlashtiradi deb hisoblaganlar. Ko’plab qiyinchiliklarga qaramasdan bu siyosat 1917-yilgacha ,ya’ni Rossiya imperiyasi qulaguniga qadar davom etdi. Bugungi kunda Turkiston landshaftini o’rab turgan rus aholi punktlarida bu siyosatning me’rosi ko’rinib turibdi va buning mahalliy aholiga ta’siri hali ham tortishuv va munozalarga sabab bo’lmoqda. Ko’chirish siyosatidan jiddiy zarar ko’rgan hududlardan biri bu hozirgi O’zbekiston hududidagi Farg’ona viloyati edi. Farg’ona o’zining mo’l-ko’l tabiiy resurslari, unumdor tuprog’i, qulay transport yo’llari bilan strategik muhim hudud edi. Rossiya imperiyasi mintaqani potensial





tayanch sifatida ko'rdi va ko'chirish siyosati orqali uni ruslar ko'p bo'lgan hududga aylantirishni maqsad qilgan edi. Farg'onadagi ko'chirish siyosati XIX asr oxirida rus hokimiyati tomonidan rus va boshqa rusiyzabon aholini bu hududga ko'chib o'tishga faol rag'batlantirilgan vaqtdan boshlangan. Ular Farg'ona viloyatida yangi qishloq va shaharchlarga asos soldilar va aholi yashaydigan punktlar qisqa vaqt ichida iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat markazlariga aylandi.

Biroq, Farg'onadagi ko'chirish siyosati muammolarda holi emas edi. Asosan o'zbeklar, tojiklar va qirg'izlarda tashkil topgan mahalliy aholi ko'chib kelganlar oqimini ulaning madaniyati va turmush tarziga tahdid deb bilganlar. Ular ko'chmanchilarga berilgan yer imtiyozlari va Rossiya hukumati tomonidan berilgan imtiyozlardan norozi edilar. Ko'chmanchilar va mahalliy aholi o'rtasida keskinlik, ayniqsa, iqtisodiy qiyinchilik davrida shiddatli to'qnashuvlarga olib keldi.

1886-yilgi "Nizom" da hukumat tasarrufida qolayotgan bo'sh turgan davlat yerlariga rus aholisini joylashtirish muhim ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi. Ko'chib kelganlar uchun o'lka ma'muriyati maktab va cherkovlar qurishga mablag' ajratdi. Ko'chirib keltirilgan aholining ko'payishi, ularga unumdor yerlarning berilishi mahalliy aholi vakillarining jiddiy noroziliklariga sabab bo'lgan. Toshkent shahri va o'lkaning Yangi Marg'ilon, Andijon kabi shaharlarida ham ko'chib kelganlarning yangi posyolkalari paydo bo'ladi. 1882-yilgi "Nizom" ga muvofiq podsho ma'murlari mahalli aholiga tegishli yerlarning kattagina qismini tortib oldi va ular asosida Rossiyada ko'chib kelganlar uchun yer fondi tashkil etildi. Bunday siyosat yer masalasi juda nozik bo'lgan, aholi zich joylashgan, ayniqsa, sug'oriladigan ekin maydonlari kam bo'lgan Farg'ona vodiysida mahalliy aholining ahvolini yomonlashtirib yuboradi. Bundan tashqari Farg'ona vodiysi asosan imperiyaning paxta xom ashyosini yetishtirib beruvchi aylantirilgan edi. Buning oqibatida g'alla, ozuqabop ekinlar maydoninong



qisqarishi hamda oziq-ovqat mahsulotlarining narxini keskin oshib ketishiga sabab bo'ldi.

Turkistonda qonun kuchini olgan 1886-yilgi “Nizom” da tilga olingan “bo’sh davlat yerlari” atmasi ruslar tomonidan mahalliy dehqonlarning yerlarini tortib olishda dastak bo'ldi. 15 yil davomida (1875-1890) Turkistonga 1300 oila ko'chib kelib joylashib, 19 ta rus qishlog'i tashkil etildi. Ayniqsa, 1891-1892-yillarda Rossiyada ocharchilik boshlanganda Turkistonga ko'chib keluvchilar nihoyatda oshib ketdi. Ana shu ikki yil davomida 25 ta yangi rus qishlog'i (posyolkasi) paydo bo'lib, rus dehqonlari soni ikki barobarga ko'paydi. Mahalliy aholi bilan rus dehqonlari o'rtasida yer-suv masalasida, sug'orish tarmoqlaridan foydalanish xususida o'zaro to'qnashuvlar kuchaydi. Bu to'qnashuvlarda rus ma'muriyati ko'chib kelganlar tarafida bo'ldi. Masalani odilona tinch yo'l bilan hak qilishga uringan amaldorlar quvg'inga uchradi. Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig'i soldatchasiga 1882- yilda shunday yozgan edi:”Baribir, ochiqchasini gaplashadigan va tan tan oladigan payt keladiku axir! Bizning ishimiz avvalo ruslarniki, rus milliy ishi...Qirg'izlar joylashgan yer ularniki emas, balki davlatnikidir. O'troq rus nufusi ularni o'lkadan siqib chiqarishi, yoki butunlay qirib tashlashi darkor”.¹ 1892- yildan boshlab Rossiyadan o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan kishilar ham ma'muriyat ruxsati bilan ko'chirilganlarga berilgan imkoniyatlardan foydalanish mumkinligi e'lon qilinadi. Bu o'lkaga ko'chib kelganlar ularning sonining oshishiga olib keladi. Turkistondagi mustamlaka ma'muriyati bundan avval bu sohada o'z holicha ish tutgan bo'lsa, endilikda mahalliy aholi yerlarini tortib olish bevosita markaz tomonidan boshqariladigan va izchil amalga oshiriladigan bo'ldi. Natijada XX asr boshida rus kelgindilarining soni 175 mingdan oshib ketdi. Turkiston aholisining atigi 5 foizini tashkil etuvchi rus mustamlakalari qo'lga ekin ekiladigan hozildor yerlarning 60 foizi berib

¹O'zRMDA. 1-jamg'arma. 16-ro'yxat. 2257-ish. 91-92-varaqlar.





qo'yilgan edi². O'lkaga ko'chib kelganlar xo'jaliklarida 1916-yilda mavjud mol va chorvalar miqdori ko'rsatilganda ham ularning tub aholga qaraganda mulkiy ustuvorligida dalolat beradi. Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich quyidagicha hisoblangan: otlar-7914 ta, yirik qoramollar-11652, qo'y-echkilar-299 ta. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatib turibdiki, Farg'onaga (Turkiston) ko'chib kelgan rusiyzabon aholining mutlaq ko'pchiligi o'lkada muqim qolib ketishgan. Buning asosiy sababi chorizmning ular uchun bu yerda qulay shart-sharoitlar yaratib berganligi edi.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash lozimki, podsho hukumatining agrar siyosati va uning o'tkir tig'i bo'lgan ko'chiruvchilik tadbirlari oxir-oqibatda ular uchun tayanch yaratishga va rusiyzabon aholining ko'payishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zRMDA. 1-jamg'arma. 16-ro'yxat. 2257-ish. 91-92-varaqlar.
2. O'zME. Birinchijild. Toshkent, 2000-yil.
3. O'zbekistontarixi.(Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) Birinchikitob. Toshkent, 2011-yil.
4. Исакаев Б. 20-летие восстания в Киргизии."Революция и национальности" М., 1936.№9. стр. 32

Internet saytlari:

- 1.Archive.uz
- 2.Ziyonet.uz

² Исакаев Б. 20-летие восстания в Киргизии."Революция и национальности" М., 1936.№9. стр. 32



MAVZU: O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI

Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi

“Tabiiy fanlar” kafedrası biologiya fani o'qituvchisi

To'xtaboyeva Sayyora Abdulboqiyevna

Annotatsiya: Respublikamizda biologiya o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. O'zbekistonda sobiq Ittifoq markazida nashr qilingan darsliklar joriy etilgani va undagi ko'pgina o'quv materiallar notanish bo'lgani sababli, o'quvchilarning bilim darajasi past edi. Shu sababli respublika metodist olimlarining e'tibori maktab botanika, zoologiya, Biologiya (tsitologiya va genetika asoslari va Biologiya (Ekologiya va evolyusiya asoslari) darslarida mahalliy materiallardan foydalanish muammosini echishga qaratildi.

Kalit so'zlar: Maktab botanika kursini o'qitishga bo'lgan didaktik talablar. Mustaqillik yillarida bir vaqtda botanik, zoologik bilimlarni maktab tajriba er uchastkasida va tirik burchakgida olib borilaётgan amaliy ishlar bilan bog'lash masalalari tadqiq qilindi (M.Jabborov, T.Isxakov, X.Shokirov). 1961 yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirgi ped. universitet)da "Biologiya o'qitish metodikasi" kafedrası tashkil qilindi. Mazkur kafedrani tashkil etilganligi bir tomondan yuqori malakali metodist olimlarni tayèrlashga, ikkinchi tomondan biologiyaning o'qitishdagi turli mavzular bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishga imkon yaratdi.

Biologiya o'qitish metodikasi kafedrası uni boshqargan A.T.G'ofurov faqat O'zbekiston uchun emas, balki qardosh Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston respublikalari uchun ham 15 dan ortiq yuqori malakaga metodist olimlar-fan nomzodlari etishtirib berdi. Metodist olimlardan I.A.Norbekov, A.T.G'ofurov, M.Maxkamov botanika, zoologiya o'quv fanidan o'tkaziladigan



ekskursiyalarning xillari, ularni o'tkazish metodikasi, unda o'quvchilar tomonidan olib boriladigan kuzatishlar, tajribalarni hal qildilar.

Maktab botanika kursini o'qitishga bo'lgan didaktik talablar, darslarda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish masalalari E.M.Belskayaning "Botanika didaktikasi" qo'llanmasida o'z ifodasini topdi. M.Ortiqov esa maktablarda o'tkazgan tajribalariga asoslanib, biologiya darslarida ekran vositalari (o'quv filmlari, diafilmlar, diapozitivlar)dan foydalanish o'quvchilarda biologik o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini orttirishiga, ularning bilimini mustaxkam bo'lishida aloxida ahamiyatga ega ekanligini isbotlab berdi. A.T.G'ofurov, J.Tolipova darslarni xilma xillashtirish, noan'anaviy darslar (seminar, konferentsiya, muammoli munozarali) o'tkazish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, mustaqilligini rivojlantirishda, puxta bilim egallashlarida katta rol o'ynashini ko'rsatib berdi. Ulardan farqli ravishda 1970 yildan boshlab A.T.G'ofurov umumbiologik tushunchalarni, xususan, "xujayra", "moddalar va energiya almashinuvi", "irsiyat va o'zgaruvchanlik", "organik olam evolyusiyasi" kabi tushunchalarni o'quvchilar qanday o'zlashtirishi haqida kuzatish, tajriba ishlarini olib bordi va bu soxada "umumiy biologik tushunchalarni shakllantirish" degan mavzuda o'quv metodik qo'llanma yaratdi. S.S.Fayzullaev 10 dan ortiq maktablarda olib borilgan pedagogik eksperimentlarga asoslanib "o'quvchilarda genetik tushunchalar sistemasini shakllantirish va rivojlantirish ilmiy – metodik asoslari" mazmunda qo'llanma yaratdi. U birinchi marotaba genetik tushunchalar sistemasi, tayanch, etakchi, asosiy, maxsus, lokal (maxalliy) tushunchalar tarkib topganligi, asosiy tushunchalar o'z navbatida genetik atamalar, qonunlar nazariyasidan iborat ekanligini isbotlab berdi.



Mahalliy materiallarga asoslangan holda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish. Bu borada mahalliy materiallarga asoslangan holda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni qanday tashkil etilishi kerakligi A.T.G'ofurov, S.K.Xabirovalarning qo'llanmasida èritilgan. Qo'llanmada ayrim o'quvchilar, o'quvchilar guruxi hamda ommaviy ravishda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning xillari, ularning mazmuni va o'zaro bog'liqligi maktablarda o'tkazilgan pedagogik tajribalar asosida ochib berilgan.

Keyingi paytlarda ekologik muvozanatning buzilishi oqibatida suv, havo, tuproq turli chiqindilar bilan ifloslanishi ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida o'simliklar va hayvonotlar, odamlar haètiga xavf solmoqda. Shu o'rinda maktablarda olib boriladigan ekologik ta'lim-tarbiyaga nixoyatda axamiyat berish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur masalaning dolzarbligini e'tiborga olib A.T.G'ofurov, O.N.Nosirov maktablarda o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'tkazilgan tajribalarga asoslanib "maktab biologiya kursida tabiat muxofazasi tushunchasini shakllantirish", M.Nishonboeva "maktabda ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish" kabi qo'llanmalarni chop etdilar. Maktab biologiya kursini o'qitishdan maqsad o'quvchilarni faqat bilimlar bilan emas, shu bilan bir qatorda ularda o'quv ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat. Bu sohada laboratoriya mashg'ulotlarni olib borish nihoyatda muhim sanaladi. Shuni e'tiborga olgan holda A.M.Qodirov "odam anatomiyasi va fiziologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlar", A.M.Qodirov, K.Haydarov "Biologiya o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari" kabi qo'llanmalarni nashr etdilar. Mustaqillik yillarida respublika metodistlarining diqqat e'tibori o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish masalasiga qaratildi. Bu o'rinda biologiyadan noan'anaviy darslar o'tkazishga (xamkorlikda o'qitish konferentsiya darslari modulli ta'lim va h) qaratildi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqov B, Kuchkarova L, Qurbonov Sh. "Bolalar va o`smirlar fiziologiyasi va gigiyenasi " T. 2005y.
2. <https://hujayra.uz/beruniyning-saydana-asarida-keltirilgan-dorivor-osimliklar/>
*Madina Pulatova Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani 30-maktab
biologiya fani o'qituvchisi*
3. Klemesheva L, Ergashev M "Yoshga oid fiziologiya " T. «O`qituvchi» 1991 y.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/tibbiyot-xodimlarini-o-qitishda-innovatsion-texnologiyalar>
5. <https://www.xabar.uz/uz/tahlil/tibbiyotda-iot-texnologiyalar-insoniyat>
6. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/822>
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=UajUxKUAAAAJ&citation_for_view=UajUxKUAAAAJ:2osOgNQ5qMEC



KIMYO O'QITISH METODIKASINING VAZIFALARI

Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi
“Tabiiy fanlar” kafedrası kimyo fani o'qituvchisi,
“Shuhrat” medali sohibasi

Shermatova Zilolaxon Musallamovna

Annotatsiya: O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab, malakali, yetuk mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj keskin ortganligining guvohi bo'lib turibmiz. Maktabdan boshlab mustaqil fikrlovchi yigit-qizlarni tarbiyalash shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Yosh avlod ma'lum bilimlar yig'indisini bilibgina qolmay, mustaqil davlat quruvchiga xos ma'naviyat va ma'rifat egasi bo'lib, o'zining mehnatga munosabati va xulq atvori hammaga havas qildiradigan bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: Milliy ta'lim dasturi, maktab o'qituvchisi vazifasi. Metodik vazifalar. Metodologiya, fanlar aloqasi.

Bizning mamlakatda o'qituvchiga, yosh avlodni tarbiyasiga katta imtiyozlar berilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim oldida birinchidan studentlar jamoasiga bilimli, ma'naviyatli hamda o'zbek millatiga xos tafakkurga ega bo'lgan yoshlar qabul qilish, ularni bilim bilan qurollantirish va yuqori ma'nosida buyuk inson darajasiga etkazish kerakdir. Buni bajarishda fan o'qituvchilari xizmati kattadir.

O'qituvchi-mukamal shakllangan kimyo fani bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerak. U kimyo fani, kimyoviy bilimlar va amaliy uslublardan tashqari bolalarning yoshiga qarab psixologiyasini bilish kerak. U oldindan bilim berishning hamma bosqichlarini amalga oshirish uslublarini mukammal egallashi kerak. O'zi dars beradigan fanning didaktik asoslarini bilib, bilimni berish umumiy uslublarini



bolalar yoshlarini hisobga berib, o'zining hayotiy tajribasiga asoslanib bilimni etkazishi kerak.

O'qituvchi o'zining bilimini hamma vaqt to'xtamay oshirib borishi shart, ya'ni pedagogik texnologiyalarini egallashi, o'quv jarayoni mukammallashtirishga harakat qilishi kerak. Chunki o'qituvchi o'z izlanishlarida to'xtab qolsa, ertasiga u shablon qotgan fikrlab qoladi va yuqori xavas qiladigan darajadagi insonlar orasidan chiqib qoladi va o'quvchilar orasida unga nisbatan xurmat ozayadi, bolalar unga taqlid qilishi, xavas qilishi yo'qola boshlaydi.

Har bir o'qituvchi boshqalar tajribalarini quruq nusxa qilmasdan, o'zining tajribasi bilan to'ldirishi kerak va shunda o'quv jarayoni mukammalashadi chunki har bir inson uziga xos uslub va unga xos shaxsiy xislatlarga ega.

Kimyo o'qitish uslublari ma'lum tartibda o'rganiladi. Avval o'qish jarayonining asosiy vazifalari qarab chiqiladi. Keyin o'qish jarayonini tashkil etish uslublari, o'qitish qurollari, shakli va o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish uslublari qarab chiqiladi.

Kimyo o'qitish uslublari faqat ma'ruzalar orqali etkazilmaydi, studentlar tajribalar ko'rsatish uslublarini bilishi, darslarni rejalashtirishni, kimyoviy masalalarni echish uslublarini, dars berish shakllarini va boshqalarni bilishi kerak. Shu sababli ular kurs ishlari bajarishi, pedagogik amaliyotda mustaqil ishlashi kerak. Uslublarni o'rgatayotganda maktab, akademik litsey, kasb hunar kolledjlarga ekskursiyalar qilish kerak. Maxsus kurslar, maxsus kurslardan amaliyotlar ham tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Fan va texnikaning rivojlanishi o'quvchilarni bilimlar oqimiga va voqealar to'lqiniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirmoqda. Bugungi kun nuqtai-nazaridan





qaraydigan bo'lsak, o'quvchilar bilim faoliyati yuqori, aqliy faoliyati yaxshi va mustaqil fikrlay olishi zarur. O'quvchilardagi bunday xislatlarni maktab o'qituvchilari rivojlantirib boradilar. Mustaqil yurtimiz ravnaqi uchun, kelajak avlodimiz uchun bunday sharaflı ishda mas'uliyat bilan ishlash har bir pedagogning burchi hisoblanadi. Bunday mas'uliyatli ishni hal etish o'quvchilarni chuqur va mustahkam bilimlar bilan qurollantirish, fanga qiziqtirish, mustaqil ishlash va fikrlashga qaratishni uslubiga bog'liq. Har qanday mutaxassis o'z ishi metodikasiga qanchalik e'tibor bersa, u shunchalik katta natijalarga erishadi. O'qituvchi ishining asosiy o'qitish metodikasi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash metodikasidir. Kimyo o'qituvchisi ishining asosi-kimyo o'qitish metodikasidir.

Kimyo metodikasi, boshqa o'quv predmetlari o'qitish metodikasi kabi, asl mohiyati bilan olganda, uchta asosiy masalani:

1. ta'lim-tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalarini;
2. bu ishning mazmuni;
3. o'quvchilarni ma'lumotli qilish va tarbiyalash protsessining xarakterini hal qilib beradi.

O'qituvchi o'z faoliyatida rejissyor, aktyor, muxarir, tashkilotchi vazifasini bajarishga majburdir, ulardan bittasi bo'lmasa bu o'qish jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Kimyo o'qitish metodikasi darslarida Universitet ziyolilari yangi bilim bermay, student bilimini o'quvchiga yetqazish uslublarining metodlarini o'rgatadilar. Kimyo uslublari umumiy pedagogik yo'nalishlardan farqlanishi mumkin, shu sababli kimyo o'qitish metodikasi quyidagi uch vazifani bajarishga harakat qiladi:

1. Maktab kimyo darsligi uchun kerakli hajmda dalillarni tanlash;
2. Kimyo dars berish usullarini tanlash;





3. O'quvchilarning bilimini oshirishda o'qituvchi faoliyati orqali kitob, kino, radio, televizor va boshqa vositalardan foydalanishni o'quvchilarga o'rgatish.

Kimyo fanining xulosalari hayot bilan chambarchas bog'liq holda bo'lishini va falsafali talqin qilishini talab qiladi. Kimyo o'qitish o'quvchilarda asta-sekin kimyoviy dunyoqarash hosil qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. A.V.Belotsvetov, S.D.Beskov, N.G.Klyuchnikov Ximicheskaya texnologiya. M."Prosvesheniya". 1976.
2. Otakuziev T.A., A.A.Ismatov, N.P.Ismoilov, F.M.Mirzaev "Noorganik metallar kimyoviy texnologiyasi" T."Uzbekiston" 2002 y.
3. Sh.M.Mirkomilov Kimyo texnologiya ma`ruzalar matni. Nizomiy nomidagi TDPU 2000 y
4. Sh.M.Mirkomilov, X.U. Maxsudxonov, O.Iskandarov. Kimyoviy texnologiya [fanidan amaliy ishlar](#), masala – mashklar va testlar tuplami. T. "Universitet" 2006.

Internet manzillari:

1. www.orbita.uz
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/tibbiyot-xodimlarini-o-qitishda-innovatsion-texnologiyalar>
3. <https://www.xabar.uz/uz/tahlil/tibbiyotda-iot-texnologiyalar-insoniyat>
4. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/822>
5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=UajUxKUAAAAJ&citation_for_view=UajUxKUAAAAJ:2osOgNQ5qMEC





6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=UajUxKUAAAAJ&citation_for_view=UajUxKUAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
7. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/819>
8. <https://science.nuu.uz/>





TIBBIYOTDA FIZIKA FANINI O'QITISHNI INFORMATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Farg'ona jamoat salomatligini tibbiyot institute

“Biofizika va axborot texnologiyalari”

kafedrası Tibbiyotda axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Melibayeva Farog'at Madaminovna

Annotatsiya: Tibbiyotda fizika o'qitish muammolarini hal qilish ko'p jihatdan qiyin tuyuladi, keling ulardan biriga to'xtalamiz. Mavjud qiyinchiliklarni yengish uchun o'qituvchiga asosan operatsion imkoniyatlari katta didaktik salohiyatga ega bo'lgan kompyuter yordam berishi mumkin[1]. Shu sababli, ko'plab o'qituvchilar elektron kompyuterlarga katta umid bog'lashadi, chunki ulardan foydalanishda haqiqatan ham hozir beradigan va zamonaviy jamiyat yosh avloddan talab qiladigan bilimlar orasidagi farqni kamaytirishi mumkin.

Kalit so'zlar: Fizika o'qitish metodikasi, elektron darslar, fizikada axborot texnologiyalarini qo'llash samaradorligi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida fizika fanini o'qitishdagi muammolar, birinchi navbatda, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda barcha talabalarning to'liq laboratoriya mashg'ulotlarini amalda o'tkazishi, har bir talaba uchun laboratoriya jihozlarining yetarli bo'lishi, dars uchun ajratilgan vaqt ichida tajribaning aniq natijalarini olishi bilan bog'liq[2]. Ushbu ko'zda tutilgan muammolarning yechimi har doim ham kutilganday natija bermasligi mumkin, ya'ni talabalar soni ko'pligi, jihozlarning yetishmasligi, talaba belgilangan vaqt ichida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazib aniq natijalarni ololmasdan, mavzuni to'laqonli o'zlashtirilmamasligi kabi bir qancha sabablar yuzaga kelishi tabiiy hol. Buning natijasida esa talabalarning fanni o'zlashtirishida ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ustida darsdan tashqari holatda ham ko'proq



shug'ullanishlariga to'g'ri keladi. Bunday vaziyatlarda esa talabalar ilmiy manbaalar, zaruriy kitoblardan foydalanib ko'rishadi, lekin amaliy va laboratoriya ishlarini mustaqil o'tkazib ko'rishda amaliy qiyinchiliklarga duch kelishadi[11]. Agar shu vaziyatda informatsion texnologiyalardan unumli foydalanilsa virtual laboratoriyalar, onlayn darslar orqali bilimlarini mustahkamlashi oson bo'ladi va xattoki kelgusida o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotlariga avvaldan tayyorgarlik ko'rib, innovatsion yaratilgan virtual laboratoriyalar, IT texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan intensiv kurslar, turli animatsiyalar, flesh dasturlar orqali mashg'ulotlarni mustaqil o'zlashtirib, mashg'ulotga qatnashsalar yuqoridagi muammolarni bir qancha hal etish mumkin. Shu bois mazkur fizika fanlarining o'qitilishini informatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish mumkin[12].

Ta'limning eng qimmatli natijalari fikrlashning moslashuvchanligi va kengligi, o'rganish qobiliyati va xohishi hisoblanadi. Ammo amalda oliy o'quv yurti ma'lum darajada bilim beradi, talabalarning malakalari esa yetarli darajada rivojlanmayapti. Bu, birinchi navbatda, aksariyat oliy ta'lim muassasalarida tushuntirish-illyustrativ o'qitish uslubining ustunligi bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtda ta'limning dolzarb muammosi bu oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan bilim va amaliy ko'nikmalarni ijodiy o'zlashtirishdir[10]. Aynan shu narsa talabaning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning rivojlanishi va o'zini o'zi rivojlanishini ta'minlashi mumkin. Bu holda o'qituvchining asosiy vazifasi olingan bilimlarni talaba uchun shaxsan ahamiyatli qilishdir. Bunga maktab o'quvchilarida o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, bu ularning faoliyati, mustaqil ijodiy fikrlash rivojiga maksimal darajada yordam beradi, ammo buning uchun o'quvchilarning mustaqil ishini oshirish uchun o'quv jarayonini tashkil etishga e'tibor qaratish zarur[8]. Hisoblash texnologiyasining jadal rivojlanishi va uning





funksional imkoniyatlarining kengayishi o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari paytida, o'z-o'zini tayyorlash paytida va o'quv materialini o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish uchun kompyuterlardan keng foydalanishga imkon beradi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ma'ruza eksperimenti imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirib, turli jarayonlar va hodisalarni simulyatsiya qilishga imkon berdi, ularni laboratoriya sharoitida to'liq namoyish qilish texnik jihatdan juda qiyin yoki oddiygina imkonsizdir.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uchun ko'plab oliy ta'lim muassasalarida zarur shart-sharoitlar mavjud. Fizika xonasi talabalar uchun 16 ta kompyuter va Internetga ulangan mahalliy tarmoq bilan bog'langan avtomatlashtirilgan o'qituvchi o'rni, shuningdek multimedia proyektori, lazerli printer va skaner bilan jihozlangan.

Fizikani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bizga quyidagilarni yanada muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi:

- Talabalarning xayoliy tafakkurini rivojlantirish vizual ma'lumotni taqdim etish uchun keng imkoniyatlardan foydalanganligi sababli;
- Ijodiy fikrlashni rivojlantirish axborotni qayta ishlash va taqdim etishning dinamik usullaridan foydalangan holda;
- Kollektivizm va aloqa tarbiyasini amalga oshirish qo'shma video loyihalarni muhokama qilishda yoki yaratishda talabalar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayonida;
- Kognitiv qiziqishni rivojlantirish, maktab o'quvchilarining kompyuter texnologiyalariga bo'lgan tabiiy istagiga tayanish;
- Shaxsning individual bilim ehtiyojlariga yo'naltirilgan o'qitishning yangi usullarini ishlab chiqish.
- Matematik modellashtirish, kompyuter grafikasi, multimedia, laboratoriya





tajribalari natijalarini kompyuterda ishlash kabi videokompyuter vositalari bilan birgalikda ma'lumotlarni qayta ishlash usullarini qo'llash natijasida ushbu muammolarni hal qilish mumkin bo'ladi.

Kompyuter eksperimenti talabalarining izlanishlari vositasi sifatida esa bofizika darslarida kompyuterlar, avvalambor, o'quvchilarning eksperimental, tadqiqot faoliyatini yoritib berishga imkon beradi. Kompyuter modellari bunday tadbirlarni tashkil qilish uchun ajoyib vosita[3]. Kompyuter simulyatsiyasi kompyuter ekranida fizik tajribalar yoki hodisalarning yorqin, esda qolarli dinamik rasmini yaratishga imkon beradi va o'qituvchiga darslarni takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Shuni ta'kidlash kerakki, kompyuter modellari deganda jismoniy tajribalarda, hodisalarda yoki jismoniy muammolarda uchraydigan ideallashtirilgan vaziyat vaziyatlarida taqlid qiluvchi kompyuter dasturlari tushuniladi. Talabalar orasida eng katta qiziqish kompyuter modellari bilan bog'liq bo'lib, ular doirasida mos keladigan matematik model asosida yotadigan sonli parametrlarning qiymatlarini o'zgartirib, kompyuter ekranidagi ob'ektlarning harakatlarini boshqarish mumkin. Ba'zi modellar eksperiment davomida bir vaqtning o'zida dinamik rejimda eksperimentni tavsiflovchi bir qator fizik kattaliklarning vaqtga bog'liq grafikalarini kuzatish imkoniyatini beradi. Bunday modellar ayniqsa qimmatlidir, chunki o'quvchilar grafik chizishda va o'qishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Kompyuter modellari an'anaviy darsga osonlikcha mos keladi, bu deyarli jismoniy ta'sirlarni deyarli "jonli" namoyish etishga imkon beradi, bu odatda tushunarli va to'laqonli bilim ma'lumotlarini taqdim qiladi. Bundan tashqari, kompyuter modellari yangi, an'anaviy bo'lmagan ta'lim turlarini tashkil etishga imkon beradi.

Adabiyotlar.





1. A. N. Remizov. TIBBIY VA BIOLOGIK FIZIKA. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2005. 195-198-sahifa
2. M. I. Bazarbayev, I. Mullojanov, X. J. Raximova, F. B. Nurmatova, U. M. Abdujabbarova, A. Z. Sobirjonov, I.Sh.Saidnazarova. Biofizika. Toshkent Fan va texnologiya – 2018. 49-54-sahifa
3. Чернова Г.В. Проблемы преподавания биофизики в медицинском вузе. NovaInfo 10 февраля 2018 78, 224-227 стр.
4. <https://lex.uz/docs/-5338558> (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021-y., 07/21/5032/0226-son)
5. Рахима Сафарова. Характеристика преподавания физики в медицинских учреждениях. Общество и инновации. Выпуск 2 №1/S(2021). 151-160 стр
6. <https://kun.uz/uz/news/2022/01/28/ozbekistonning-demografik-holati-aholi-orasida-kuzatilgan-olim-va-uning-sabablari-malum-qilindi>
7. S.X.Umarov, Ashurov J. J., Khodzhaev U. U., Narzullaeva Z. M., Kurbonov B. S., Namozov I. U. Effect of temperature and impurities of group iv elements on the electrophysical and strain - resistive properties of TlInSe₂ crystals. Тиббиётда янги кун. (New Day in Medicine). 2(30/2). 2020.C.19 – 23.
8. Мехринисо Фарҳодовна Атоева, Электромагнетизм бўлимини даврийлик технологияси асосида ўқитишнинг дидактик имкониятлари, ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2016. – № 1/2. – Б. 86-89бет.
9. Мехринисо Фарҳодовна Атоева, Ернинг магнит майдонини фанлараро боғланиш орқали тушунтириш, Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2010. – № 1. – Б.53-55



10. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования. Специальность 060101 Лечебное дело. Квалификация врач-лечебник. М., 2009.
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/tibbiyot-xodimlarini-o-qitishda-innovatsion-texnologiyalar>
12. <https://www.xabar.uz/uz/tahlil/tibbiyotda-iot-texnologiyalar-insoniyat>
13. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/822>
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=UajUxKUAAAAJ&citation_for_view=UajUxKUAAAAJ:2osOgNQ5qMEC





SOHIBQIRONNI ANGLASH-O'ZLIKNI ANGLASH

Muxammadjonov Sodiqjon Sobirjon o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Nurafshon filiali talabasi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda hayoti davomida erishgan yutuqlari va bizga o'rnak bo'ladigan muhim jihatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Shu bilan birgalikda Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobi hayotimizda qanday ahamiyat kasb etishi haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: Buyuk davlat arbobi, Temur tuzuklari, adolatli tamoyillar, Temuriylar davlati, musulmon fiqhi qoidalari, Islom qudrati, insonparvar, adolat, tartib-intizom, islomiy-mazhabiy.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligi, ma'naviyati o'zining salohiyati, mazmuni, tarbiyaviy kuchi va ta'siri bilan xalqimiz tarixida alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligiga erishgach, uning bir necha ming yillik ijtimoiy-siyosiy tarixini har taraflama o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, markazlashgan Amir Temur saltanati, uning o'zbek davlatchiligi va madaniyatini rivojlantirishdagi o'zni masalalariga oydinlik kiritilib, tarixchi, sharqshunos olimlarimiz ko'plab birinchi manba ahamiyatidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdilar. Davlatimizning siyosati va xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori, 1995 yil 26 dekabrda esa Prezidentimizning «1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon qilish to'g'risida»gi farmonlari qabul qilindi. 1996 yil martida «Temuriylar tarixi» davlat



muzeyini tashkil qilish xususida, «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risida farmonlar chiqdi. YUNESKO qarori asosida Amir Temur tavalludining 660 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi.

Amir Temur mamlakatda qatiqqo'l hokimiyat o'rnatish zarurligini yaxshi tushunardi. Negaki, ko'chmanchi mug'ul-turk qabilalaridan jaloir, barlos, sulduz va boshqalarning o'zboshimcha boshliqlarini itoatda saqlab turish oson emas edi. Shu maqsadda mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etishga kirishadi. U o'ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida barlos qabilasidan maxsus harbiy qism tashkil etib, ularga katta imtiyozlar beradi.

Amir Temur o'z davlati hokimiyatini mustahkamlashda islom diniga tayandi. Islom namoyandalari uni qo'llab-quvvatladi. Mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil etgan dehqonlar va shahar aholisi – tijoratchilar, hunarmandlar sohibqironning davlatni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarini ma'qulladilar. Amir Temur davlat ishlarini yurgizishda 4 narsaga doim amal qildi.

Bular:

1. Kengash.
2. Mashvaratu maslaxat.
3. Qat'iy qaror, tadbirkorlik va xushyorlik.
4. Extiyotkorlik.

Aynan ushbu amal qilingan qoidalar nafaqat davlat boshqaruvida balki biznes sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Amir Temurning bu qoidalar bilan katta yutuqlarga erishgani hech kimga sir emas. Aynan ushbu jihatlar ham biz uchun o'rnak bo'lsa arziydi.

Bugungi kunda demokratik huquqiy davlat qurayotgan xalqimiz Vatanimiz tarixida huquqiy davlat haqidagi tasavvur va qarashlarning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi, uning yuridik manbalari, dunyoviy huquq va qonunchilik masalalarini ham bilishni istaydi, albatta. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Temur





tuzuklarini tarixiy-huquqiy tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, o'tmish merosimiz, uning boy davlatchilik va huquqiy asoslari, xususan, Amir Temur davrida davlat va huquq borasida qo'llanilgan adolatli tamoyillar bugungi kunda mustaqilligimizga ham xizmat qilib, shaxsning yuksak siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda ko'maklashmoqda. Amir Temur hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy tarixiy manbalar benihoya ko'p va xilma-xil bo'lib, bu uning nomi, jahon tarixidagi roli beqiyos ekanligi va g'oyat mashhurligidan dalolat beradi. Amir Temur, Temuriylar davlati, uning tashkil topishi masalalariga bag'ishlangan, chet ellarda va Respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy tahlili ham bir qator olimlarimizning kitoblarida yoritilgan. «Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni 600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda.

Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi bo'lganligi hamda uning sifatleri haqida juda ko'p mualliflar o'z fikrlarini aytganlar. Ammo aynan uni ko'rib, suhbat qilgan kishilar Ibn Xaldun, don Klavixo hamda Temurning maslahatchisi va, ayniqsa, g'arb mamlakatlariga yuborilgan xristian elchisi Ioann Fransiskning, hozirda Parij milliy kutubxonasida saklanayotgan xotiralari, ayniqsa, qimmatli, ishonchli dalildir. «Amir Temur fors, arab va turk tillarini biladi. Qur'on ilmi va Islom huquqshunosligi ilmida shu qadar kuchli olimki hech bir musulmon olimi u bilan munozara kilishga qodir emas, u olim va shoirlarga katta hurmat ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, uning o'zi olim va donishmanddir».

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, buyuk sarkarda Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari o'z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo'lishiga olib kelgan. Hozirgi kunda kundan-kun gullab-yashnab borayotgan Mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni yanada



mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o`rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isbotidir. Bu esa xalqimiz kelajagi uchun adolatli turmush tarzi yaratib berish yo`lida qilinayotgan say-harakatlarning samarasidir. O`sib kelayotgan kelahak avlod ham Amir Temurni anglab uning o`gitalari va tuzuklarini o`rganib yuksak marralarga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi.- Toshkent: Sharq, -2000.-365 b.
2. Temur tuzuklari. Ahmedov B. tahriri.- Toshkent: G`afur G`ulom, - 1991.-144 b.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar.-Toshkent: O`qituvchi, 1994.-432 b.
4. Adambayev J. Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlari.- maqola





DASTURLASHNI O'RGANISHDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI

Muhammadjonov Sodiqjon Sobirjon o'g'li
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nurafshon filiali talabasi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Hozirda hech kimga sir emaski, jahon miqyosida dasturchilarga bo'lgan ehtiyoj borgan sari o'sib bormoqda. Aynan bizning yurtimizda ham IT sohasiga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu maqolada dasturchilikni o'rganmoqchi bo'lgan yoshlarga ingliz tilining qanday ahamiyatga ega ekanligini va bu tilni o'rgangandan so'ng dasturchiga qanday yo'llar ochilishi haqida qisqacha bayon etilgan.

KIRISH

“Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Hayotimizni eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, jahon axborot texnologiyalari bozorida munosib o'rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur.” Shavkat Mirziyoyev

Darhaqiqat ushbu so'zlardan yurtimiz kelajagiga yurtboshimizning qanday qayg'urayotganliklari yaqqol namoyon bo'ladi. Biz yoshlar bizga berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, yurtimiz ravnaqini yuksaklarga ko'tarishimiz kerak. O'z ustimizda tinimsiz ishlab, sohamizning yetuk mutaxasisi bo'lib yetishishimiz darkor. Albatta buning uchun biz jahon tillarini yaxshi bilishimiz kerak. Bu bilan biz jahonda bo'layotgan yangiliklarni qiyinchiliklarsiz o'z



sohamizga tatbiq etamiz.

Ko'plab yoshlarni qiziqtirgan va muammoli masala bo'lib turgan savol bu: "Dasturchi bo'lish uchun ingliz tilini bilish kerakmi?" yohud shunga o'xshash savollar yoshlarni qiziqtirmoqda. Aynan shu savolga qisqa holatda javob yozishga harakat qildim.

Bu savolga javobni klaviaturalar bilan tushuntirishni lozim topdim. Hech birimizga sir emaski kompyuterda ishlagan insonlar albatta Ctrl+A, Ctrl+C, Ctrl+V va Ctrl+Z shu kabi formulalar tanish. Biz ingliz tilida 26 ta harf borligini bilamiz va ushbu harflar kombinatsiyasini Ctrl tugmasi bilan ishlatamiz. Avvalo Ctrl tugmasi qisqartma so'z bo'lib, u ingliz tilida control ya'ni "boshqaruv, nazorat, tekshirish" ma'nolarini beradi.

Kombinatsiyasi	Kengaytmasi
Ctrl+A	Control+all barchasini boshqarish
Ctrl+B	Control+bold font qalin shriftni boshqarish
Ctrl+C	Control+copy nusxani boshqarish
Ctrl+D	Control+double ikkilangan boshqaruv
Ctrl+F	Control+finder qidiruv boshqaruvi
Ctrl+G	Control+group guruhlashtirish
Ctrl+N	Control+new yangi fayl boshqaruvi
Ctrl+O	Control+open faylni ochish
Ctrl+P	Control+print chop etish menyusi
Ctrl+Q	Control+quit chiqib ketish
Ctrl+S	Control+save saqlash

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, yuqorida ko'rib o'tilgan



kombinatsiyalardan namunalargina holos. Bu kombinatsiyada matematik mantiqni ham ko'rish mumkin. Biz dasturlashni o'rganishimizni boshlashimiz bilan birinchi bo'lib, logistika, horijiy tillar va matematikaga duch kelamiz bu esa bizni o'z ustimizda ko'proq ishlashimizni talab qiladi.

Barchamizga ma'lum va hech kimga sir emaski, biror masalada muammoga duch keladigan bo'lsak albatta "Google" ga murojaat qilamiz. Afsuslar bilan aytishimiz kerakki, dasturlash oid bo'lgan ko'plab ma'lumotlar ham aynan horijiy tillarda hisoblanadi. Hatto buni ham oddiy internet sahifamizdagi WWW(Word Wide Web) qisqartma ham ingliz tilida.

Yurtimizda ingliz tilidan xalqaro IELTS 7+ olgan yoshlarga imtihon harajatlari kompensatsiya qoplab berilmoqda. Bu imkoniyatdan oqilona foydalanmaslik noto'g'ri. Horijiy so'zlarni o'rganib dunyoni egallang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O.Salimov, Q.Quranboyev, N.Xalilov. Intelektual yoshlar – vatanimiz kelajagi.- Toshkent: Ta'lim, -2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz 1-tom.- Toshkent: O'zbekiston, - 2017.-86 b.
3. M.A. Rahmatullayev, B.I. Ganiyeva. Jahon axborot resurslari.-Toshkent: Aloqachi, 2019.





ACCELERATING THE PURIFICATION OF PARAFFIN IN POWDERY ADSORBENTS USING ULTRASOUND. METHODS OF EXTRACTING PARAFFIN AND CERESINS FROM OIL.

Raibov Rustamjon Shovkat o'g'li

FarPI Master's degree

Annotation: Paraffins are refined to remove coloring and volatile matter, as well as odorous matter. Paraffin cleaning is carried out by acid-base method, using adsorbents (contact or percolation), as well as hydrocleaning. The dark color of paraffin before cleaning is explained by the presence of resinous, sulfurous, nitrogenous and other substances, as well as dark products formed from unsaturated and aromatic hydrocarbons.

Key words: Adsorbent, resinous, sulfur, nitrogenous substances, sulfuric acid, oleum, NaOH, Na₂CO₃, water, melting point, unsaturated and aromatic hydrocarbon.

Acid-base cleaning method.

One of the oldest methods of refining paraffin is to treat it with 95-98% sulfuric acid or oleum, which is 102-104% sulfuric acid. The consumption of acid or oleum varies from 0.5 to 6% by weight. Cleaning temperature 60-80°C. Acid Paraffin is neutralized with a 2-5% solution of NaOH, Na₂CO₃ or bleaching clay at 80-85°C. Neutralized paraffin is thoroughly washed with water. Cleaning is carried out periodically in mixers, paraffin is moved with compressed air with reagents. In some factories, sulfuric acid treatment is carried out by hot method at 160°C. Purification of sulfuric acid is very effective, the melting point of the formed solid paraffins is 48-58°C, the color is up to 200-250 mm according to KH-51.

Adsorption cleaning.





In some factories, paraffin adsorption cleaning is used by contact method. It is usually carried out in one of the blocks of contact oil cleaning units reconstructed for this purpose. Melted paraffin is mixed with bleaching clay, the mixture is heated to 80-150⁰C, and then the paraffin is separated from the bleaching clay in periodically operated filters. Contact purification of paraffin is relatively cheap, but only weak purification can be carried out in this way, which is paraffins that go for technical purposes. suitable for In this case, the color of paraffin usually does not exceed 50-120 mm according to KN-51. Adsorption cleaning is carried out by the percolation method, paraffin is filtered through a stationary or moving sorbent. Synthetic aluminosilicate catalyst chips, crushed bauxite, specially prepared adsorbents are used as adsorbents. In domestic percolation plants, a piece of aluminosilicate catalyst is used as an adsorbent. As the adsorbent is saturated, the next percolator is started; spent adsorbent from the first percolator is sent to regeneration. At the same time, the installation has the following disadvantages: when using raw paraffin, which has not undergone preliminary cleaning and has a strong color, the adsorbent is quickly saturated.

References:

1. Rakhmanov O.K., Abdurakhimov S.A. Assessment of the influence of ultrasonic action on the quality of paraffin cleaning with local adsorbents // FarPI Ilmiy - technics journals. Pharaun. 2009. No. 4. 52-54 B.
2. Rakhmanov O.K., Abdurakhimov S.A., Mirsalimova S.R. The mechanism of ultrasonic action on molten paraffin during its purification with a composition of adsorbents // Journal of Composite Materials. Tashkent. 2009. No. 4. S.34-36.
3. Rakhmanov O.K., Abdurakhimov S.A., Mirsalimova S.R. Contact cleaning of paraffin with local adsorbents in combination with ultrasonic action // Uzbekiston





neft va gas journals. 2010. No. 1. 48-49 B.

4. Rakhmanov O.K. Intensification of the process of adsorptive cleaning of paraffin by the contact method with the imposition of ultrasound // Kimyo va kimyo tekhnologasi journals. Tashkent. 2010. No. 1. 58-59 B.

5. Agronats B.A. Ultrasonic technology. M.: Metallurgy, 1974. 215s

6. Mayer V.V. Simple experiments with ultrasound. Moscow: Nauka, 1978. 160s.





STUDY OF THE INFLUENCE OF ULTRASOUND ON THE PROCESS OF ADSORPTION PURIFICATION OF PARAFFIN

Raibov Rustamjon Shovkat o'g'li

FarPI Master's degree

Annotation: It is known that, depending on the mineralogical and chemical composition, clay adsorbents have different sizes and pore volumes, and their filling requires the selection of rational frequencies of ultrasonic vibrations. Currently, the following types of clay adsorbents are mainly used in the oil refining industry: Opaque clay adsorbents of the Navoi region: Kermin, bentonite clay adsorbents of the Navbahor field and palygorskite clay adsorbents of the same field.

Key words: Mineralogical and chemical composition of paraffins, ultrasonic vibration frequency, clarity of paraffin, Model-200 mercury pyrometer, Opoka clay from Carmine mine, Alkakine bentonite of Navbahor mine, Carbonate polygorsite of Navbahor mine.

Table 3.3.1 lists the chemical composition of the above adsorbents.

Table 3.3.1

Chemical components	Content, in absolute dry matter %		
	Opoka clay from Kermin mine	Alkakine bentonite of Navbahor mine	Carbonate polygorsite of Navbahor mine
Al_2O_3	9,35	13,69	8,63
FeO	0,5	-	3,41
Fe_2O_3	3,55	5,1	-
CaO	13,56	0,48	10,08
TiO_2	0,3	0,35	-
MgO	3,48	1,84	2,74
Na_2O	3,06	1,53	-



K ₂ O	1,25	1,75	1,6
P ₂ O ₃	-	0,43	1,99
SO ₃	3,9	0,75	-
P.P.P	10,10	16,17	24,33
SiO ₂	50,8	57,91	46,79
Total	99.85	99.98	99.75

Chemical composition of clay adsorbents used in the purification of paraffins Table 3.3.1 shows that with a change in the type of adsorbent, i.e. its mineralogical composition and chemical composition also change significantly. For example, bentonite adsorbent contains Cao-0.48%, polygorskite adsorbent - 10.08%, Kermin mine Opoka clay contains 13.56%. All these differences, of course, are reflected in the size and volume of their pores.

With this in mind, we investigated the porosity of selected clay adsorbents and, in particular, the volumes of transition pores. Analyzes were performed in a standard method on a Model-200 mercury pyrometer (Colbo Erba strumantazione, Italy). At the same time, the duration of the study is 30 minutes, the minimum pressure of the introduced mercury is 20x105 kPa, and the mass of the studied clays is 0.977g each. The bleaching ability of clay adsorbents depends on the conditions of their contact with paraffin. In this regard, the frequency of ultrasonic vibrations also plays an important role in the purification of paraffins with clay adsorbents. We studied the effect of ultrasonic vibration frequency on wax clarity at 80-850C. In this case, the duration of experiments was 60 minutes, and the amount of clay adsorbents entered was equal to 4.0% by weight of paraffin. The results of experimental studies are shown in Figure 3.3.1.






Figure 3.3.1.

Opoka adsorbent; bentonite adsorbent; palygorskite adsorbent.

Figure 3.3.1. Variation of the light level of paraffin (S) depending on the frequency of ultrasound vibration (H).

As can be seen from this figure, it is reasonable to choose the working range of the ultrasonic frequency for the opac-like adsorbent of the Kermine mine within the following limits: from 15 to 20 kHz, for the alkaline bentonite of the Navbahor mine - from 20 to 25 kHz, and for the carbonate palygorskite of the Navbahor mine - 25 to 30 kHz.

References:

- 1.Mamadaliyeva Sadoqat Valijonovna."Mahalliy xom ashyolar asosida ishlab chiqilgan adsorbentlar kompozitsiyalarida parafinlarni chuqur tozalash texnologiyasi".
- 2.Rahmonov Ortiq Komilovich. Интенсификация процесса контактной очистки парафинов на глинистых адсорбентах с наложением ультразвука. Aftoreferat.
3. А.Н.Переверзев, Н.Ф.Богданов, Ю.Н.Рошин. Производства парафинов.



Москва Издательство “Химия” (1973г)

4.Семенова Т.Г., Поплавская А.В.,Воробьева Е.И., Химия и технология
топлив и масел. (1966г)





AGRICULTURE HUMAN CAPITAL AS AN INVESTMENT IN BROADER AREAS

Senior teacher Khujamkulova Khosiyat Ishboyevna

doctoral student Salomova Zarina Murodovna

Annotation: The article highlights significant points about agriculture human capital as an investment in broader areas. In addition to this, recent researches and data about the theme were noted.

Key words: *human capital, critical thinking, multi-level impact, economic evaluation, agri-food systems, global agriculture development.*

